



"YALDO KECHASI" ROMANIDA SYUJET VA KOMPOZITSIYA UYG'UNLIGI.

Mansurova Bog'dagul Quchqorovna

Osiyo texnologiyalar universiteti 1-bosqich magistranti.

[*bogdagulmansurova19@gmail.com*](mailto:bogdagulmansurova19@gmail.com)

Annotatsiya. Mazkur maqolada "Yaldo kechasi" asarining syujet va kompozitsiya uyg'unligi ilmiy nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Asarda voqealar tizimi, konfliktlar rivoji hamda obrazlar harakati orqali muallif g'oyasining badiiy ifodalanishi ochib beriladi. Syujet va kompozitsiya o'rtasidagi uzviy bog'liqlik romanning estetik ta'sirchanligini ta'minlovchi muhim omil sifatida yoritiladi.

Kalit so'zlar: syujet, kompozitsiya, konflikt, badiiy asar, voqealar tizimi.

Аннотация. В данной статье рассматривается художественное единство сюжета и композиции в романе " Ялдо кечаси". Анализируются система событий, развитие конфликтов и роль образов в раскрытии авторской идеи. Особое внимание уделяется взаимосвязи сюжета и композиции как важному фактору, обеспечивающему эстетическое воздействие произведения.

Ключевые слова: сюжет, композиция, конфликт, художественное произведение образ, система событий.

Abstract. This article analyzes the harmony of plot and composition in the novel "Yaldo kechasi" from a theoretical perspective. The system of events, development of conflicts and role of characters in expressing the author's idea are examined. Spisial attention is given to the interrelation between plot and composition as a key factor that enhances the aesthetic impact of the work.

Keywords: plot, composition, conflict, literary of events.



Kirish. Badiiy mukammalligi ko'p jihatdan uning syujet va kompozitsiya uyg'unligiga bog'liq. Syujet-voqealar tizimi va ularning rivojlanish ketma-ketligi bo'lsa, kompozitsiya- shu voqealarning joylashuvi, tartibi va badiiy tashkil etilishidir. "Yaldo kechasi" romanida aynash shu ikki komponentning uyg'unligi asarning badiiy qiymatini belgilaydi.

Asosiy qism. "Yaldo kechasi" romanida syujet hayotiy voqealarga asoslangan holda bosqichma-bosqich rivojlanadi. Asarda kirish, tugun, rivojlanish, kulminatsiya, yechim kabi bosqichlar aniq ko'zga tashlanadi. Asar syujeti Oqpodsho qo'shinlarining Oqmachit tomonlarga bostirib kelishi voqeasi bilan boshlanadi va xonliklarning o'zaro bosh-boshdoqliklari, ichki nizolari bilan davom etadi. Otabekning Xudoyorxon xizmatiga maxfiy tarzda o'tishi, xonga jo'yali maslahatlar berishi va uni Rusiya istilosiga qarshi Buxoro amirligi bilan birlashishga da'vat etishi javobsiz qoldiriladi. Mudofaa janglarida Otabek shahid ketadi. Xonliklar o'rtasidagi ichki kelishmovchiliklar natijasida O'rusiya qo'shinlari Turkistonni egallab oladi. Asarda jadidchilik harakatlari, milliy-ozodlik kurashlari ochib berilgan.

Otabekning yolg'iz og'li Yodgorbek ham qunt bilan bilim olib, ziyoli inson bo'lib yetishadi. Samarqand madrasasida tahsil oladi. Tahsil davomida jadidizm asoschisi hisoblangan Ismoil Gasprinskiyning gazetasini muntazam mutolaa qiladi va keyinchalik o'zi ham "Najot" milliy jaridasini ochishga muvaffaq bo'ladi. Til o'rganib chet el safarlariga chiqishi natijasida esa boshqa yurtlarning ijtimoiy-siyosiy va madaniy ahvolini ko'rib, Turkistonning naqadar nochor va qoloq ekanligiga achinib ketadi. Millat farzandlarini o'qitish maqsadida bepul maktab tashkil qiladi. Keyinchalik bu maktab ham chor hukumati ma'murlari tomonidan yopib tashlanadi. Shu o'rinda asardan olingan parchani keltirib o'tmiqchiman. "Maktabning ochilish jarayonida qo'shnisining

- Bekvachcha, endi uyingizga bir butxona ham soling" degan kinoyasiga javoban



- Ma'qul Xolvoqi aka, agar butxona soladiring'an bo'lsam, albatta, sizni pop qilib olg'ananim bo'lsin. [1.1] deya javob beradi.

Shu o'rinda Xondamir Qodiriyning asar haqidagi fikrini ham keltirib o'tmoqchiman " Ushbu kitobning ichiga ikki- uch sahifadayoq kirib ketdim. Sababi, uning sahifalarida so'zlab kelinayotgan dard-alamlar menga yaqin, tanish, ular menibo'z domiga tortib ketdi va men kitobni uch kunda o'qib bitirdim. Kitob menga juda-juda ma'qul.

Bugungi avlodning barcha qatlamiga ma'naviy, ma'rifiy, madaniy, axloqiy va siyosiy tarbiya bera oladigan maqomda yozilgan " degan fikrlarni beradi. Asar voqealari tizimi markazida inson ruhiyati, kechinmalari va jamiyat bilan munosabat masalalari turadi. Syujetdagi asosiy konflikt ko'pincha shaxs va muhit o'rtasidagi qarama-qarshilik asosida qurilgan. Roman kompozitsiyasi murakkab va ko'p qatlamlidir. Muallif voqealarni oddiy ketma-ketlikda emas, balki retrospektiv (o'tmishga qaytish), parallel voqealar, ichki monologlar orqali beradi.

Bu esa asarning badiiy chuqurligini ochiradi. Kompozitsiyada bo'limlar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlik saqlanib, har bir epizod umumiy g'oyaga xizmat qiladi.

Asarda syujet va kompozitsiya bir-birini to'ldiradi.

Syujet voqealar rivojini ta'minlasa, kompozitsiya ularni tartibga soladi va badiiy shakl beradi. Masalan, kulminatsion nuqtalarda kompozitsion vositalar (dialog, ichki monolog, tasviriy detallar) kuchaytiriladi. Bu esa o'quvchining hissiy ta'sirchanligini oshiradi.

Asar kulminatsiyasi sifatida shu o'rinlarni ko'rsatish lozimki, "Nihoyat, qadimchilar, qozi-yu quzzot va ahli hukamo, muxtasar aytkada, "Najot" ko'zglasida qiyshiq basharalarini ko'rib yuragi adovat va kin ila to'lg'on har kas borki Ostroumov to'ra boshchiligida Yodgorbekka qarshi oyoqqa turadilar. Kech kuz oqshomlarining



birida "Najot" tahririyatida Marg'ilon polis idorasi tomonidan tintuv o'tkazildi. Nashrg'a hozirlab qo'yilg'an sakson oltinchi son musodara qilindi..... Yodgorbek ikki xodimi- No'shiravon Yovushev va Haydar Burhon o'g'li bilan birga mahkamag'a tortildi" [1.3] Yodgorbek Sibir surgunidan qochishga urinib vafot etadi. Shundan keyin uning oilasi, ikki o'g'li hayotida qaro kunlar boshlanadi. Zumradbibi xastalanib yotib qoladi. Farzandlarini boqolmasdan Ozodbekni yetimxonaga, Odilbekni Nusratxon to'ra tarbiyasiga berishga majbur bo'ladi.

Xulosa. "Yaldo kechasi" romanida syujet va kompozitsiya o'zaro uyg'un holda tashkil etilgan. Voqealar tizimi va ularning badiiy joylashuvi muallif g'oyasini to'liq ochishga xizmat qiladi. Syujetning izchilligi va kompozitsiyaning mukammalligi asarning estetik qiymatini oshirib, o'quvchiga kuchli badiiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abdullayeva G. Xayriddin Sulton ijodi o'rganilishi. Tezis. European science international conference.
2. Normatov U. Mustaqillik davri o'zbek nasri. Toshkent: O'zbekiston. 2021. 250- b.
3. Mirzayev A. Zamonaviy o'zbek nasrida badiiy tafakkur. Toshkent: Universitet. 2023. 315-b.
4. Mansurova B. Xayriddin Sulton "Yaldo kechasi" romanining g'oyaviy xususiyatlari. Global economic review journal. February 2026. ISSN(E) 2980- 5287.
5. Rajabov M. Zamonaviy o'zbek nasrida psixologik tahlil masalalari. O'zbek tili va adabiyoti. Toshkent: 2022. N4.
6. Shavkat Shahri. Yaldo kechasini kuting va o'qing. Jadid. 48-son. 2025.28-noyabr.
7. Shuhrat Rizayev Yaldo kechasi